

**“Milliy turizm brendi”ga logotip va shior yaratish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, “Milliy turizm brendi”ga logotip va unga hamohang shior yaratish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi (*keyingi o‘rinlarda - Vazirlilik*) huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

**tanlov** - “Milliy turizm brendi”ga logotip va shior yaratish (*3 ta tilda (uzb, rus, ingliz) tarjimasi bilan*) bo‘yicha tanlov;

**tanlovnvi muvofiqlashtiruvchi** – Vazirlik huzuridagi Turizm qo‘mitasi hisoblanadi va mazkur Nizomga zaruriyatdan kelib chiqib tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi hamda Tanlov shartlari va qoidalarini belgilaydi;

**tanlov tashkilotchisi** - Turizm qo‘mitasi huzuridagi “Milliy PR-markazi” DUK;

**tanlov ishtirokchisi** - Tanlovda o‘z arizasi bilan ishtirok etadigan marketing va brending konsalting kompaniyalari.

Tanlov tashkilotchisi ushbu Nizom asosida tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.

**2-bob. Tanlovning asosiy maqsad va vazifalari**

3. Tanlovning maqsadi yangi “Milliy turizm brendi”ga logotip va unga hamohang shior yaratish orqali O‘zbekiston Respublikasining turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ‘ib qilish, sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini yanada mustahkamlashga qaratilgan targ‘ibotlarni yo‘lga qo‘yish.

4. Tanlovning vazifalari:

- “Milliy turizm brendi”ga doir yangi logotip va unga hamohang shior yaratish, shuningdek ularda hududlarda yaratilgan yangi turizm yo‘nalishlarini, hududlarning turizm xususiyatlarini aks ettirish;

- Yangi turizm brendining maqsadli bozorlar (auditoriya) talablaridan kelib chiqib, keyinchalik xorijiy mamlakatlarda O‘zbekistonning tarixiy, madaniy, gastronomik, tibbiy va sog‘lomlashtirish, arxeologik, ekologik va ekstremal kabi turizmnинг turlari to‘g‘risida kontentlar yaratish.

- tanlovda faol qatnashgan logotip va shior mualliflarni munosib rag‘batlantirish.

**3-bob. Tanlov o‘tkazish tartibi**

5. Tanlov bo‘yicha arizalar 2024-yil 25-avgustdan 25-sentabrgacha [tanlovbrend@uzbektourism.uz](mailto:tanlovbrend@uzbektourism.uz) elektron manzili orqali qabul qilinadi. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan arizalar Tanlov tashkilotchisi tomonidan

5 kungacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

6. Tanlovda uchtdan kam taklif kelib tushsa, tanlov qaytadan mazkur Nizomda belgilangan talablar asosida o‘tkaziladi.

7. Arizalar va ilovalarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar g‘olib aniqlangunga qadar sir tutilishi Tashkilotchi tomonidan kafolatlanadi.

8. Arizalar va ilovalarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar 5 kungacha bo‘lgan muddatda Tanlov tashkilotchisi tomonidan mazkur Nizomning ilovalari bilan tasdiqlangan talablarga muvofiqligi o‘rganib chiqiladi.

9. Ushbu sohada kamida 5 yil ish tajribasiga (tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda) ega bo‘lgan hamda mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun brend yaratish bo‘yicha tanlovlarda (tenderlarda) g‘olib bo‘lgan.

#### **4-bob. Tanlov yakunlarini e’lon qilish**

10. Tanlov natijalari Komissiya raisi tomonidan imzolangan bayon bilan tasdiqlanadi.

11. Tanlov tashkilotchisi tomonidan g‘olibni aniqlash va taqdirlash marosimini o‘tkazish 1 oy oralig‘ida amalga oshiriladi. Tanlov tashkilotchisi tomonidan tanlov natijalari 2024-yil 30-sentabr kuni rasmiy saytlar ([www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz), [www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel), [www.nationalprcenter.uz](http://www.nationalprcenter.uz)) va Telegram, Instagram, Facebook ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e’lon qilinadi.

12. Tanlov g‘olibi bir nafar bo‘lib, u **10 000 AQSh do‘llari** pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

#### **5-bob. Tanlovni moliyalashtirish**

13. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Tanlovni muvofiqlashtiruvchi tomonidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

14. Tanlov g‘oliblarini qo‘srimcha taqdirlash uchun homiylik mablag‘lari jalg‘etilishi mumkin.

#### **6-bob. Intellektual multk huquqlari**

15. Qo‘mita va tanlovda g‘olib bo‘lgan ishtirokchi o‘rtasida intellektual mulkka nisbatan mulkiy huquqlar Qo‘mitaga o‘tishi to‘g‘risidagi shartnomasi imzolanadi;

16. G‘olib deb topilgan ishtirokchi tomonidan ishlab chiqilgan logotip va shior O‘zbekiston Respublikasi turistik salohiyatini targ’ib qilishda tadbirkorlar va fuqarolar tomonidan beg‘araz va cheklanmagan miqyosda ishlatilishi mumkin.

17. Tanlovda ishtirok etish orqali ishtirokchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- Tanlovga taqdim etgan logotip va shior dizaynining qonuniy egasi hisoblanadi (plagiat ishlatmagan) va ularga nisbatan mutlaq huquqqa ega;
- Tashkilotchiga uchinchi shaxslar tomonidan ma’lumotlardan foydalanish

bo‘yicha da’volar kelib tushgan taqdirda, u ushbu da’vo bilan murojaat qilgan shaxslar bilan barcha nizolarni mustaqil ravishda va o‘z hisobidan hal qilish majburiyatini oladi;

- agar uchinchi shaxslar sudda yoki boshqa tarzda Tashkilotchining ma’lumotlardan foydalanish huquqiga e’tiroz bildirsa, ishtirokchi Tashkilotchi tomonidan ish yuritishda ishtirok etishi va Tashkilotchi tomonidan ma’lumotlardan foydalanishning qonuniyligini isbotlashi shart;

- agar ishtirokchi ma’lumotlardan foydalanish va tasarruf etishning qonuniyligini isbotlay olmasa va Tashkilotchi javobgar bo‘lsa, ishtirokchi sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida Tashkilotchining sud va/yoki nizoni ko‘rib chiquvchi boshqa organ xarajatlari, Tashkilotchidan uchinchi shaxs foydasiga undiriladigan summa, sud jarayoni bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni qoplashi shart;

- Tashkilotchiga mualliflik huquqi va/yoki turdosh huquqlar egalaridan, ularning vakolatli vakillaridan yoki uchinchi shaxslardan Tashkilotchi tomonidan ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha da’volar kelib tushgan taqdirda, ishtirokchi uchinchi shaxslar bilan tegishli da’volar bo‘yicha barcha nizolarni o‘z hisobidan hal etish majburiyatini oladi;

- ishtirokchi Tanlovda qatnashish orqali Tashkilotchiga tanlovga yuborilgan logotipler va shiorlarni ko‘paytirish, ulardan nusxa olish, nashr etish, namoyish qilish (ommaviy) hamda har qanday vositalar yordamida, shu jumladan, efir va kabel televidenyesi orqali, Internetda, shuningdek, Tanlov bo‘yicha taqdim etilgan materiallarni ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish (nashr) qilish huquqini bermaydi;

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

18. Tanlovni o‘tkazish tartibiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish Tanlov tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. O‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritiladigan taqdirda, bu haqda ijtimoiy tarmoqda e’lon qilinadi.

19. Tanlovda ishtirok etishda amaldagi anti-korruption va manfaatlar to‘qnashushi to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda tanlov o‘tkazilmagan deb topiladi va qayta o‘tkazilishi mumkin.

20. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

“Milliy turizm brendi”ga logotip va shior  
yaratish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi  
to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilova

## “Milliy turizm brendi” uchun yaratiladigan logotip va shiorga qo‘yiladigan talablar

1. “Milliy turizm brendi” uchun yaratiladigan yangi logotip va unga hamohang shior o‘ziga xos bo‘lishi, avval hech qanday tanlovlarda ishlatilmagan yoki ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilinmagan bo‘lishi va mavjud mualliflik huquqlarini buzmasligi kerak.
2. Logotip va shior bir-biriga hamohang bo‘lib, o‘zlarida O‘zbekistonning boy tarixi, qadriyatları, madaniyati, gastronomiyasi, tibbiy va sog‘lomashtirish, arxeologik, ekologik va ekstremal turizm yo‘nalishi sifatidagi intilishlarini aks ettirishi kerak.
3. Logotip va shior turizm sohasiga mos kelishi va O‘zbekiston turizm salohiyati haqida ijobiy taassurot uyg‘otishi kerak.
4. Logotip va shior adabiy va xorijiy tillar normalariga (o‘zbek, rus, ingliz) javob berishi kerak.
5. Logotip o‘ziga xos badiiy yechim va kreativ yondashuv asosida bo‘lishi kerak.
6. Logotip dizayni ixcham, sodda, aniq va tez esda qoladigan bo‘lishi kerak.
7. Logotipda O‘zbekistonning madaniy o‘ziga xosligini, merosini hamda qadriyatlarini aks ettiradigan yorqin ranglar va ramziy elementlardan foydalanish tavsiya etiladi.
8. Logotip zamonaviy, o‘ziga xos, oson tanib olinadigan va noan’anaviy shaklga ega bo‘lishi kerak.
9. Logotip ishlab chiqilgan formati:
  - *CorelDraw* yoki *Adobe Illustrator* yoxud *Adobe Photoshop* formatida ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.
  - *Canva*, *PowerPoint* va boshqa platformada ishlab chiqilmagan bo‘lishi kerak.
  - Logotip *vektor* formatida bo‘lishi kerak.
10. Logotipda juda ko‘p mayda detallar bo‘lmasligi kerak.
11. Shior o‘zbek, ingliz va rus tillarida bo‘lib, qisqa, tushunarli va tez esda qoladigan bo‘lishi kerak.
12. Shior **5 ta so‘zdan** oshmasligi hamda hayrat, sarguzasht, sayohat qilishga xohish tuyg‘ularini uyg‘otishi kerak.
13. Tanlov ishtirokchisi bir qancha logotipler va ularga mos shiorlar bilan Tanlovda ishtirok etishi mumkin.
14. Logotip va shior salbiy taassurotga ega bo‘lmasligi kerak.
15. Logotipda quyidagilardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi:
  - 15.1. Millatlararo nizolarni qo‘zg‘atuvchi mazmundagi millatchilik va ekstremistik chaqiriqlar, giyohvand moddalarni tarqatishga, davlatga

va Konstitutsiyaga qarshi mazmundagi taqiqlangan g‘oyalar hamda shu kabi g‘oyalarga xizmat qiluvchi dizaynlar;

15.2. Shahvoni hirs uyg‘otuvchi belgilar va (yoki) zo‘ravonlik, buzg‘unchilikni targ‘ib qiluvchi illyustratsiyalar, shuningdek, odamlar va hayvonlarning jismoniy azoblanishini aks ettiruvchi tasvirlar bo‘lgan logotiplar;

15.3. Qo‘rqinchli, stressli hissiyotlar va hayajonlarni ko‘rsatuvchi dizaynlar;

15.4. Ishtirokchi taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiqligi uchun javobgardir;

15.5. Logotip va shiorni ishlab chiqishda ishtirokchilar sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga haqli emas;

15.6. Logotip va shior O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga mos bo‘lishi lozim.